



O'ZBEKISTON HUDUDLARIGA INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*Toshkent Moliya instituti
Dotsent, Phd Umurov A.T
Xalilova Jasmina Davron qizi
Toshkent Moliya instituti talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi hududiga investitsiyalarni jalgan qilish, xorijiy investorlarni hududlarga keng jalgan qilish hamda hududlarning investitsion jozibadorligini va investitsiya muhitini yaxshilovchi omillar, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda xorijiy investitsiya loyihamalarini amalga oshirishning ahamiyati haiqda fikr va xulosalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Investitsiya, xorijiy investitsiya, investitsiya siyosati, iqtisodiy rivojlanish, rivojlangan hududlar, investitsion jozibadorlik, investitsiya muhi.

Kirish

O'zbekiston Respublikasi bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida investitsiya iqtisodiyotda tuzulmaviy o'zgarishlarni amalga oshirishda eng samarali yo'llardan biri bo'lib qolmoqda. Shuningdek, investitsiya mamlakatinimizda mulkiy va insoniy kapitallarni oshirish uchun suv va havodek zarur bo'layotgan sohalardan birga ayalib bo'ldi. Investitsion hamkorlik umumjahon va milliy muamolarni hal etishda muhim vazifalarni bajarganligi sababli nafaqat O'zbekistonda balki, jahonda investitsion faoliyat sezirali darajada keskin faollashib bormoqda. Bugungi kunda jalgan qilinayotgan investitsiyalar yurtimizning kelajakdagagi iqtisodiy o'rnnini belgilab berishi bilan muhim ahamiyatga egaligi va shu sababli ham mamlakatinimizda investitsion faoliyatni ta'minlash va xorijiy investorlarni jalgan qilish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir.

Tadqiqot metodologiyasi

Investitsiyalarni jalgan qilish va ulardan samarali foydalanish yo'llari bo'yicha mavjud bo'lgan ilmiy tadqiqotlarni xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish, statistik ma'lumotlarni va iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraktsiyalash, ma'lumotni guruxlash, analiz va sintez, induktsiya va deduktsiya usullaridan keng foydalanilgan.



Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

L.S.Zoirov, Sh.Sh.Asamxodjayeva va S.B.Yunusovalar O‘zbekistonning iqtisodiy rivojlanishini davom ettirishning yagona yo‘li xorijiy investitsiyalarni keng jalg qilish deya ta’kidlashadi va quyidagicha izohlanadi:

“Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ochiq investitsiya siyosati yurituvchi mamlakatlar o‘zlarining iqtisodiy muammolarini bir qismini xorijiy investitsyalar hisobiga hal qiladilar va xorijiy investitsiyalar sabab iqtisodiy muvaffaqiyatlarga erishadilar (Xitoy, Janubiy Koreya, Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari va boshqalar), bu esa jahon kapital bozorida mamlakatlar o‘rtasida xorijiy investitsiyalarni o‘z hududiga jalg qilish bo‘yicha raqobatni yuzaga keltiradi. Davlatlar xorijiy investorlar uchun qulay investitsion muhit va imtiyozli sharoit yaratib, sanoat o‘sishi, YalM va eksport o‘sishi, sanoatni texnik qayta qurollantirish, aholi bandligini ta’minlash, jahon bozoriga chiqish kabi muammolarini hal etmoqdalar” [1].

E.I.Nasirov, Sh.Sh.Asamxodjayeva, M.S.Aliqulovlar o‘z ilmiy ishlarida Milliy iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, asosiy ishlab chiqarish fondlarini modernizatsiya qilish, texnik qayta ta’mirlash, ishlab chiqarishda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish va shu orqali mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlashda investitsiyalar muhim ahamiyat kasb etishi haqida yozishadi. Shuningdek, xorijiy investitsiyalarni keng jalg qilish bo‘yicha o‘z fikrlarini bildirishgan, “O‘zbekiston investitsion muhitini takomillashtirish xorijly investitsiyalarni jalg qilish qulay makroiqtisodiy siyosatni yaratish bo‘yicha ish olib borish muhim hisoblanadi. Buning uchun inflyasiya darajasini holatda ushlab turish, inflyasiyani loyihalarning qiymati o‘sishiga ta’sirini kamaytirib borish talab etiladi. Xorijiy investitsiyalar tarkibida to‘gridan to‘gri xorijiy investitsiyalar miqdorini keskin ko‘paytirishga ko‘proq e’tibor qaratish lozim. Investitsiyalarni real ishlab chiqarishga, xizmat ko‘rsatishga birinchi navbatda xomashyonini qayta ishlovchi tarmoqlarga jalg etish lozim deb o‘ylaymiz. Investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish, bizning fikrimizcha, yakka hokimlikkaga qarshi erkin raqobatga ega muhit yaratish, raqobatni rag‘batlantirish va rivojlantirish, kichik va o‘rta biznes korxonalarini qollab-quvvatlab turish, samarali va hamma chun manfaatli bo‘ladigan soliq siyosatini yuritishning yo‘nalishlarini belgilab olish lozim” [2].

“Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy vazifalaridan biri bu investitsion faoliyatni takomillashtirish va uning o‘sishini ta’minlovchi yangi



mexanizmlarni ishlab chiqish hisoblanadi. Investitsion faoliyatni shakllantirish va chet ellik investorlarni mamlakatga jalg qilish juda murakkab jarayon bo'lib, bu ma'muriy-buyruqbozlik iqtisodiyotidan bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tayotgan barcha mamlakatlar uchun zarurdir. Chunki investitsiyaviy faoliyat va investitsiyalarni boshqarish ko'plab omillarga bog'lik, binobarin, ularni boshqarishning biror bir usuli alohida, aniq ko'rinishda xech qanday adabiyotda yaqqol tarzda ko'rsatib o'tilmagan. O'zbekiston iqtisodiyotining o'sishi, eng avvalo, chet el investitsiyalarini o'zlashtirish va zamanoviy texnologik asbob-uskunalar bilan jihozlangan yangi progressiv va raqobatbardosh ishlab chiqarishni harakatga keltirish asosida ta'minlanishi mumkin"ligi haqida M.S.Saitkamolov o'z ilmiy dessertatsiyasida yozadi[3].

Tahlil va natijalar

Xorijiy va milliy investitsiyalarni jalg qilishda mamlakat va uning hududlarida yaratilgan investitsion jozibadorlik, qulay investitsion muhit va hududlarning nisbiy afzalliklari muhim o'rin tutadi. Aynan yuqorida omillarga xorijiy investorlar tomonidan alohida e'tibor beriladi. Hududlarning investitsion jozibadorligini aniqlashda turli uslublardan foydalaniladi. Ularning bir-biridan farqi investitsion muhitni belgilaydigan omil va indikatorlarni tanlab olishda namoyon bo'ladi. Yurtimiz olimlarining tadqiqotlariga ko'ra, hududlarning investitsion jozibadorlik indeksi oltita element asosida hisoblanadi va shu bo'yicha integral indeks aniqlanadi. Olingan ma'lumotlarga ko'ra, hududlarning investitsion jozibadorligini uchta guruhga bo'lish mumkin: investitsiya muhiti juda yaxshi bo'lgan guruhlar; investitsiya muhiti o'rta darajada bo'lgan guruhlar; investitsiya muhiti darajasi juda past bo'lgan guruhlar. Buni biz quyidagi jadval ma'lumotlaridan bilib olishimiz mumkin (1 -jadval).

1-jadval

Hududlarning investitsion jozibadorligini aniqlash elementlari [4].

№	Hududlar	Hududning umumiyligiqtisodiy rivojlanish darajasi	Hududning moliviya y resurslar bilan ta'minishi	Investitsion infratuzilma rivojlanish darajasi	Hududning demografiy tavsifi	Institutsiyal o'zgarishlar va rivojlanish darajasi	Hududning faoliyat xavfsizligi darajasi	Mutlaq integral ko'rsatki ch
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	0,0064	0,121	0,085	0,222	0,559	0,535	0,234
2.	Andijon	0,341	0,151	0,276	0,426	0,560	0,594	0,367



3.	Buxoro	0,304	0,144	0,165	0,413	0,509	0,511	0,315
4.	Jizzax	0,198	0,049	0,075	0,388	0,496	0,506	0,151
5.	Qashqadaryo	0,362	0,542	0,266	0,382	0,370	0,386	0,382
6.	Navoiy	0,536	0,189	0,218	0,348	0,348	0,439	0,338
7.	Namangan	0,141	0,118	0,183	0,374	0,531	0,554	0,285
8.	Samarqand	0,181	0,234	0,154	0,401	0,607	0,522	0,322
9.	Surxondaryo	0,150	0,101	0,104	0,324	0,549	0,422	0,250
10.	Sirdaryo	0,185	0,037	0,147	0,320	0,317	0,723	0,247
11.	Toshkent	0,434	0,197	0,366	0,493	0,611	0,362	0,404
12.	Farg‘ona	0,317	0,241	0,331	0,470	0,289	0,573	0,347
13.	Xorazm	0,171	0,113	0,199	0,310	0,529	0,535	0,284
14.	Toshkent.sh	0,837	0,793	0,701	0,820	0,580	0,845	0,755

Birinchi guruhga Toshkent shahri, Toshkent, Qashqadaryo, Andijon va Farg‘ona viloyatlari kiradi hamda ular investorlar uchun eng qulay investitsion imkoniyatlarga ega hisoblanadi (indeks 0,755-0,347). Investitsion jozibadorlikning yuqori bo‘lishi ushbu hududlarda tabiiy ijtimoiy-iqtisodiy salohiyat, infratuzilma, jumladan, transport va axborot-kommunikatsiya tarmoqlarining rivojlanish darajasi yuqoriligi bilan belgilanadi. Ikkinchi guruhni Samarqand, Buxoro, Navoiy va Namangan viloyatlari tashkil etadi (indeks 0,322-0,288). Ushbu hududlar xorijiy investorlarning qazib oladigan va qayta ishlaydigan korxonalar faoliyat ko‘rsatayotganiga qiziqishi bilan belgilanadi.

Uchinchi guruhga nisbatan kam rivojlangan hududlar – Xorazm, Surxondaryo, Jizzax, Sirdaryo viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasi kiradi (0,284-0,234). Bu hududlarda boshqa hududlarga nisbatan mavjud infrastruktura holatining yetarli darajada rivojlanmaganligi, tabiiy iqtisodiy, investitsiya muhitining a’lo darajada emasligi mazkur hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda davlatning ishtiroki yuqori bo‘lishi lozimligini belgilaydi. Mamlakat hududlariga xorijiy investorlarni keng jalb qilishda hududlarning investitsion jozibadorlik ko‘rsatkichidan tashqari boshqa bir nechta alohida ko‘rsatkichlar orqali ham hududning iqtisodiy-investitsion salohiyatini aniqlash mumkin bo‘lib, ular, eng avvalo, investitsiya faoliyatiga doir (umumiyl) hududiy huquqiy asoslarning yaratilganligi hamda amal qilish darajasi, hududlarning YaHM, tadbirkorlikni boshlash va ishbilarmonlik muhiti indeksi, hududlardagi mavjud infrastruktura hamda ishchi kuchining malakasi, tabiiy resurslar salohiyati va boshqalardir. Har bir investor hududlarga berilgan alohida imtiyoz yoki qo‘shimcha yengilliklar bor yoki



yo‘qligi bilan ham qiziqadi. Hududlarda yuqoridagi ko‘rsatkichlarning talab darajasida ekanligi esa investor uchun kafolat vazifasini bajaradi.

Xorijiy investorlarni hududlarga keng jalb qilish hamda hududlarning investitsion jozibadorligini va investitsiya muhitini yaxshilovchi omillarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- mavjud huquqiy-qonunchilik sohasini takomillashganligi;
- investitsion ma’lumotlar yagona bazasining yaratilganligi hamda ochiqligi;
- hududlarni boshqarish darjasи, ma’muriy to‘siqlarning kamligi;
- soliq va kredit tizimining maqbulligi;
- transport va aloqa infrastruktura holatining rivojlanganligi;
- iqtisodiyotning ochiqligi;
- hududning obro‘sи (imidji) yuqoriligi;
- bank-moliya va sug‘urta xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarining yuqoriligi;
- hududiy imtiyoz va qo‘shimcha yengilliklarning mavjudligi va boshqalar.

Bugungi kunda mamlakatimiz hududlariga kiritilayotgan xorijiy investitsiya-larning hajmi kundan-kunga oshib, hududlar va shu asosda mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishiga katta hissa qo‘shmoqda. Jahonda bugungi kunda koronavirus pandemiyasi hali hamon o‘z hukmini surmoqda va bu mamlakatlarga har tomonlama jiddiy ta’sirini ko‘rsatmoqda. Shunday keskin vaziyatda respublikamizga xorijiy investitsiyalar oqimining kirib kelishi pasaygani yo‘q. Buning sabablari yuritilayotgan oqilona iqtisodiy-investitsiya siyosati, qulay investitsion va tabiiy salohiyat, malakali kadrlar salohiyati, shuningdek, uzoqqa mo‘ljallangan strategik ahamiyatga ega hududiy investitsiya dasturlarining joriy etilishidir.

Hududlar bo‘yicha tahlil qiladigan bo‘lsak, so‘nggi yillarda olib borilayotgan iqtisodiy siyosat natijasi o‘larоq mamlakatimizning barcha hududlarida investitsiyalar oqimi yildan yilga oshib bormoqda. Hududlar rivojlanishi bo‘yicha oldinda bo‘lgan Toshkent shahri, Toshkent, Samarqand, Navoiy, Farg‘она, Qashqadaryo hamda Namangan viloyatlarida asosiy kapitalga investitsiyalar miqdori boshqa hududlarga nisbatan ko‘proqni tashkil qilyapti. Bu hududlarda so‘nggi yillarda miqdori 5-7 milliard AQSh dollarigacha bo‘lgan yirik investitsiya loyihalari ishga tushirildi. Bunga asosiy sabablar esa infrastrukturaning rivojlanganligi, qulay investitsion muhitning mavjudligi, malakali ishchi kuchi, ishlab chiqarish kuchlarining oqilona taqsimlanganligi, qolaversa boy tabiiy zahiralar hisoblanadi. Birgina Toshkent shahri va viloyatini oladigan bo‘lsak so‘nggi ikki yilda bu hududlarga mos ravishda 2019 yil 42 trln. va 20 trln., 2020 yilda 44 trln. hamda 19



trln. so‘mga yaqin investitsiyalar kiritilgan. Boshqa hududlarga nisbatan kamroq investitsilar o‘lashtirilgan viloyatlar esa Xorazm, Andijon, Sirdaryo hamda Surxondaryo viloyatlari hisoblanadi. Xorazm viloyatiga 2019 yilda 5 trln. so‘mdan ko‘proq investitsiyalar kiritilgan bo‘lsa, Sirdaryo viloyatiga 5,8 trln. so‘m, Surxondaryoga esa 11,8 trln. so‘m investitsiyalar kiritilgan. 2020 yilda esa Andijon viloyatiga 8,7 trln., Sirdaryo viloyatiga 7,1 trln., Xorazm viloyatiga esa 6,6 trln. so‘mlik kapital qo‘yilmalar kiritilgan. Mazkur raqamlar har yili har xil o‘sish tendensiyasiga ega, bunga sabablardan esa strategik investitsiya loyihalarining turli yillarda turli hududlarda bajarilishi hamdir. Misol uchun, 2014-2017 yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasida yirik investitsion loyiha hisoblangan Surgil gaz-kimyo kompleksining ishga tushirilishi, 2019-2020 yillarda Buxoroda Qandim gaz koni negizidagi kompleksning ishga tushirilishi va boshqalardir. Qolaversa, har yilgi hududiy investitsion dasturlarning bajarilishi ham bu raqamlarning o‘zgarishiga katta ta’sir qiladi. Shu sababdan mamlakatning qaysidir hududi investitsilarni ko‘p yo kam jalb qilyapti deb aniq aytishning imkonи yo‘q va bu doimo nisbiy holatda baholanadi. Chunki har bir hududning ijtimoiyqtisodiy rivojlanish darajasi o‘ziga xosdir, investitsiyalar miqdori ham shunga monand bo‘ladi. Oxirgi yillarda mamlakatimiz hududlari ichida eng ko‘p xorijiy investitsiyalar Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Buxoro, Qashqadaryo, Navoiy viloyatlari va Toshkent shahriga kiritilganligini ko‘rshimiz mumkin. Buxoro viloyatiga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar miqdoriga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, 2015 yilda hududga jami investitsiyalarning 36 foizga yaqini, 2018 yilda 44 foizi, 2019 va 2020 yillarda esa mos ravishda 53,9 va 49,5 foiz xorijiy investitsiyalar jalb qilingan. Qashqadaryo viloyati yonilg‘i energetika sohasidagi yirik sanoatlashgan hududlardan biri bo‘lganligi bois bu hududga har yili katta miqdorda xorijiy sarmoyalar kiritilmoqda. Hududga so‘nggi yillarda umumiy investitsiyalarga nisbatan 51 foiz (2018 yil), 70,3 foiz (2019 yil), 66,8 foiz (2020 yil) xorijiy sarmoyalar kiritilganligini ko‘rshimiz mumkin. Poytaxtimizda yaratilgan qulay investitsiya muhiti, a’lo darajadagi infrastruktura imkoniyatlari, har tomonlama yaratilgan investitsiya imkoniyatlari Toshkent shahriga chet el investitsiyalarini katta miqdorda kirib kelishiga zamin yaratmoqda. Toshkent shahriga 2015 yilda umumiyinvestitsiyalarga nisbatan 13 foiz xorijiy investitsiyalar kiritilgan bo‘lsa bu raqamlar 2019 36.7 foiz, 2020 yilda esa 31,5 foizni tashkil qilgan[5].

Mamlakatimiz hududlari ichida nisbatan kam xorijiy investitsiyalar jalb qilinayotgan hududlar sirasiga Jizzax, Sirdaryo va Samarqand viloyatlarini kiritish mumkin. Mazkur hududlar respublika miqyosida kiritilgan jami xorijiy



investitsiyalarga nisbatan 3-10 foiz miqdorda chet el sarmoyalariни жалб qilmoqda. Bu hududlarda xorijiy investitsiyalarga nisbatan mahalliy investorlarning sarmoyalari salmog‘i ko‘pdir (2-jadval).

2-jadval

2016-2022 yillarda O‘zbekiston Respublikasida moliyalashtirish manbalari bo‘yicha asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar tarkibi (chet el investitsiyalari va kreditlari), foizda[6].

Hududlar	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
O‘zbekiston Respublikasi	20,7	23,8	24,3	43,6	42,7	42,7	42,8
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	44,6	10,0	23,7	36,9	38,9	38,2	38,7
Andijon	4,9	7,2	14,8	39,6	36,3	49,0	48,4
Buxoro	52,4	71,0	44,0	53,9	48,2	60,0	58,4
Jizzax	7,3	10,8	8,7	48,8	61,9	28,9	47,3
Qashqadaryo	27,5	18,0	51,1	70,3	69,3	55,9	47,0
Navoiy	5,1	24,2	34,0	39,9	67,8	60,2	54,4
Namangan	22,6	31,6	33,5	45,8	37,2	32,6	34,7
Samarqand	2,2	2,8	4,7	27,8	27,0	31,8	52,7
Surxondaryo	9,8	11,5	21,4	66,3	60,1	44,1	42,3
Sirdaryo	7,7	4,6	9,6	44,8	48,7	56,7	79,1
Toshkent	13,7	12,0	9,6	26,0	26,7	37,8	32,4
Farg‘ona	8,9	5,8	19,4	42,7	41,3	39,7	44,8
Xorazm	5,8	6,8	8,5	42,5	32,0	34,9	32,3
Toshkent sh.	16,4	18,1	15,1	36,7	29,9	39,6	30,0

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda xorijiy investitsiya loyihalarini amalga oshirishning ahamiyati katta hisoblanadi. Buning esa afzalliklariga quyidagilardan iborat:

- birinchidan, xorijiy investitsiyalar ko‘magida korxonalarga zamonaviy texnika va texnologiyalar joriy qilinib, eksportga mo‘ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanadi;
- ikkinchidan, import o‘rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish, buning uchun xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotning yetakchi sohalariga yo‘naltirish orqali pirovardida aholining turmush darajasini oshirish imkoniyaratiladi;



– uchinchidan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini jadallashtirish o‘sib borayotgan aholini ish joylari bilan ta’minalash imkoniyatlarini oshiradi;

– to‘rtinchidan, korxonalarning eskirgan ishlab chiqarish quvvatlari, moddiytexnik bazasi yangilanadi va ular texnik jihatdan qayta qurollanadi;

– beshinchidan, tabiiy resurslarni qayta ishlaydigan korxonalar barpo etiladi[7].

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytadigan bo‘lsak, mamlakatimiz hududlariga xorijiy hamda mahalliy investitsiyalarni jalb qilishda quyidagi ustuvor yo‘nalishlarni belgilash maqsadga muvofiq:

– mamlakatimiz hududlarini iqtisodiy-ijtimoiy afzallik va tabiiy salohiyatini dunyo investorlariga yanada ko‘proq ko‘rsatishga qaratilgan tashviqottarg‘ibot, marketing ishlarini keng yo‘lga qo‘yish;

– mamlakat hududlarida mavjud tabiiy-resurs salohiyatini hisobga olgan holda, hududiy investitsiya siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish. Bunda tabiiy-resurs, iqtisodiy, investitsion salohiyati yuqori bo‘lgan Toshkent shahri, Toshkent, Samarqand, Farg‘ona viloyatlariga imtiyozlar nisbatan kam yoki umumiy bo‘lgan qattiq investitsiya siyosatini, Jizzax, Sirdaryo, Surxondaryo, Qoraqalpog‘iston kabi hududlarga esa imtiyozlari nisbatan ko‘proq bo‘lgan yengilroq investitsiya siyosatini amalga oshirish;

– ishchi kuchiga talab yuqori hududlar va ish o‘rinlari kam hududlarda alohida imtiyozlar joriy qilish (misol uchun, Farg‘ona, Namangan va Andijon viloyatlarida ishechi kuchi soni ko‘pligi va ish o‘rni o‘rtasida nomutanosibliklar mavjudligi bois yaratilgan har bir ish o‘rni uchun imtiyozlar berish). Yuqorida keltirilgan muammolarni hal qilish va tadbirlarni amalga oshirish hududlar rivojlanishiniva shu asosda milliy iqtisodiyotning rivojlanishi va uning investitsiya salohiyatini ortishiga katta turtki bo‘ladi.

Xulosa

Investitsiyalarni faollashtirish uchun iqtisodiyotning real sektorida faoliyat yuritayotgan xo‘jalik subyektlari faoliyatini erkinlashtirish talab etiladi. Biznes bilan doimiy muloqot, muayyan sektorlarning rivojlanishiga to‘sinqilik qiladigan to‘siqlarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha samarali choralarini qo‘llash kerak bo‘ladi. Shuningdek, quyidagi yo‘nalishlarni e’tiborga olish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

1. Iqtisodiy rivojlanish va barqaror o‘sish sur’atlarini saqlab qolish uchun mamlakat iqtisodiyotida raqobatbardoshlikni oshirish, moliyalashtirishda bank va xorijiy investorlardan samarali foydalanish choralarini kuchaytirish zarur.



2. Investitsion jozibadorlikni oshirish va yaxshi investitsiya muhitini yaratishda asosiy omillardan biri bo‘lgan aloqa va transport infratuzilmasini yanada rivojlantirish lozim.

3. Xususiy investitsiyalarning jadal o‘sishini ta’minlash maqsadida davlat-xususiy sheriklik va loyihalarini moliyalashtirish vositalarini rivojlantirish orqali investitsiyaviy faoliyatni rag‘batlantirishni jonlantirish kerak.

4. Raqamlashtirish va davlat xizmatlarini masofaviy taqdim etish orqali investitsiya loyihalarini amalga oshirishda byurokratik to‘silqlar va cheklovlarini to‘liq bartaraf etish uchun investorlar va davlat o‘rtasidagi munosabatlar optimallashtirish hamda shaffoflikni maksimal darajada ta’minlash lozim.

5. Kelgusida mamlakat sanoat ishlab chiqarish quvvatlarini rivojlanishi uchun zamin yaratishi mumkin bo‘lgan eng istiqbolli tarmoqlarga yo‘naltirilgan investitsiya siyosati strategiyasini takomillashtirish va amalga oshirish darkor.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, qo‘sishimcha qiymat yaratuvchi sanoat korxonalarini va investitsiya loyihalari tashabbuskorlarini amaliy qo‘llab quvvatlashga katta e’tibor qaratish, eksport va investitsiyalarni rivojlantirish bo‘yicha islohotlarni chuqurlashtirish, iqtisodiy-moliyaviy erkinlik berish, xususiy mulk huquqining daxlsizligini qat’iy ta’minlash, investorlar huquqini himoya qilish, institutsional jihatdan qulay shart-sharoitlar yaratib berish, investorlar va eksportchi korxonalar bilan yaqin hamkorlik qilish, pandemiya tufayli yuzaga kelgan cheklovlar bilan bog‘liq muammolarni tahlil qilish, shuningdek, har bir tadbirkorlik subyektining muammosini hal qilishda individual yondashuv asosida tezkor va samarali yechimlarni ishlab chiqish va amalga oshirish mamlakatning investitsiya muhitini yaxshilashga xizmat qiladi. Natijada, iqtisodiyotning real sektorini moliyalashtirish va ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish hamda har tomonlama tejamkor zamonaviy texnologik yutuqlarni o‘zlashtirish imkonи yaratiladi, shuningdek iqtisodiy o‘sishga erishish, qo‘sishimcha ish o‘rinlarini yaratish orqali aholi turmush tarzini yaxshilash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1.Investitsiya: Darslik / L.S.Zoirov, Sh.Sh.Asamxodjayeva, S.B.Yunusova; - T.: “Iqtisod-Moliya”,2019.652b.

2.Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish: Darslik. 1-qism / E.I.Nasirov, Sh.Sh.Asamxodjayeva, M.S.Aliqulov; - T.: <<Iqtisod-Moliya>>,2020. – 168 b.



3.IQTISODIYOTGA INVESTITSIYALARLNI JALB QILISH VA ULARNI BOSHQARISH USULLARI: Dissertatsiya / M.S.Saitkamolov; Toshkent-2016. 96b.

4. Asqarova M.T., Hakimov H.A. Makroiqtisodiy siyosat. O‘quv qo‘llanma. T.: TDIU, 2016. 314 b.

5. www.stat.uz - O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy axborot sayti ma’lumotlari. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/investments>.

6. www.stat.uz - O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy axborot sayti ma’lumotlari. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/investments>.

7. Almatova D. Mintaqalarda investitsiyalar jalb etishning muhim yo‘nalishlari. “O‘ZIA” - “EVU” 1/2012.